



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil “21” noyabr

BUYRUQ № 197

Toshkent sh.

**“Daromadlarning shakllanishi hisobini tuzish bo'yicha uslubiy nizom”ni
tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, daromadlarning shakllanishi hisobini tuzish bo'yicha xalqaro statistika amaliyotidan kelib chiqib, statistika uslubiyatini takomillashtirish maqsadida, **buyuraman:**

1. “Daromadlarning shakllanishi hisobini tuzish bo'yicha uslubiy nizom” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Quyidagilar o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin:

Davlat statistika qo'mitasining 2018- yil 26- dekabrda “Daromadlarning shakllanishi hisobini shakllantirish bo'yicha vaqtinchalik uslubiy nizom”ni tasdiqlash to'g'risidagi 24- son qarori;

Davlat statistika qo'mitasining 2020- yil 31- martdagi “Korxona va tashkilotlar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish va sotishga yo'naltirilgan xarajatlar tarkibining bir martalik tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o'tkazish tartibi hamda kuzatuv so'rovnomalari”ni tasdiqlash to'g'risidagi 6- son qarori.

3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov

Daromadlarning shakllanishi hisobini tuzish bo'yicha uslubiy nizom

Daromadlarning shakllanishi hisobini tuzish bo'yicha uslubiy nizom (keyingi o'rinlarda – Uslubiy nizom) Statistika agentligining statistika uslubiyotiga xalqaro standartlarni joriy qilish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlari doirasida “Milliy hisoblar tizimi – 2008” (MHT–2008) qo'llanmasi, shuningdek, Statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model-GSBPM) talablari asosida ishlab chiqilgan.

Mazkur nizomning maqsadi daromadlarning shakllanishi hisobini tuzish tartibini ishlab chiqish va undan foydalanishning uslubiy asoslarini aniqlab berishdan iborat.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushunchalar va ularning ta'riflaridan foydalaniladi hamda u GSBPMning qayta ishlash bosqichi doirasida ma'lumotlarni integratsiyalash, tasniflash va kodlashtirish, yangi ko'rsatkichlarni shakllantirish, umumlashtirish hamda qayta ishlashni yakunlash jarayonlarini o'z ichiga oladi:

iqtisodiyotning institutsional sektori iqtisodiyotda bajaradigan vazifalari va moliyalashtirish manbalari nuqtai nazaridan o'xshash bo'lgan institutsional birliklarning majmui bo'lib, ularning iqtisodiy faoliyati bir xil bo'lishini talab qiladi;

nomoliyaviy korporatsiyalar sektori – asosiy vazifasi bozorda sotish va foyda olish maqsadida bozor tovarlarini ishlab chiqarish va nomoliyaviy xizmatlarni ko'rsatish bo'lgan institutsional birliklar;

moliyaviy korporatsiyalar sektori – moliyaviy vositachilik va u bilan bog'liq bo'lgan tijorat asosida taqdim etiladigan boshqa moliyaviy xizmatlarni ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi institutsional birliklar;

davlat boshqaruvi sektori – asosan, yakka tartibdagi yoki jamoaviy iste'mol uchun nobozor xizmatlarni ko'rsatuvchi (yoki tovarlar ishlab chiqaruvchi), shuningdek, daromadlarni qayta taqsimlovchi institutsional birliklar. Ushbu birliklarning resurslari boshqa sektorlarga tegishli bo'lgan institutsional birliklar tomonidan to'lanadigan soliqlar va ajratmalar, shuningdek, mulkdan olingan daromad hisobiga shakllantiriladi.

uy xo'jaliklari sektori asosiy vazifalari ishchi kuchi taklifi va yakuniy iste'mol, shuningdek, sotish uchun va o'z iste'moli uchun tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish faoliyatini amalga oshirishdan iborat bo'lgan barcha rezident uy xo'jaliklarini o'z ichiga oladi;

uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektori (UXXKNT) uy xo'jaliklariga nobozor xizmatlarni ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi institutsional birliklar (jamoat birlashmalari, ijodiy va kasaba uyushmalari, diniy tashkilotlar, xayriya jamg'armalari, alohida balansga ega bo'lgan sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat sohasida xizmatlar ko'rsatadigan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari) bo'lib, ularning asosiy resurslar manbai a'zolik badallari va tashkilot mablag'lari hisoblanadi;

yalpi qo'shilgan qiymat ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) va ishlab chiqarish jarayonida to'laligicha iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste'mol) orasidagi farq orqali aniqlanadi;

yalpi ichki mahsulot (YAIM) iqtisodiy rezident-birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalovchi va ushbu birliklar tomonidan yakuniy iste'mol uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati orqali o'lchanadigan MHTning asosiy ko'rsatkichlaridan biridir;

kuzatilmaydigan iqtisodiyot – doimiy statistika kuzatuvlarida to'liq yoki qisman qamrab olinmagan, shuningdek, statistika ko'rsatkichlarida aks ettirishda bilvosita usullar orqali baholanadigan iqtisodiy faoliyat turlari;

norasmiy iqtisodiyot – uy xo'jaliklari yoki jismoniy shaxslar tomonidan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tmagan holda amalga oshiriladigan ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat;

yashirin iqtisodiyot – qonun bilan man etilmagan, ammo soliqqa tortilmaslik va qonun hujjatlari talablariga rioya qilmaslik maqsadida davlat organlaridan ataylab berkitilgan iqtisodiy faoliyat;

yollanma ishchilar mehnatiga haq to'lash – hisobot davrida bajargan ishi uchun yollanma ishchiga ish beruvchi tomonidan pul yoki natura ko'rinishida to'lanadigan haq;

ishlab chiqarish va importga soliqlar bu davlat boshqaruvi organlari tomonidan ishlab chiqaruvchi birliklardan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va import qilish yoki ishlab chiqarish omillaridan foydalanganlik uchun undiriladigan majburiy beg'araz qaytarilmaydigan to'lovlardir;

mahsulotlarga soliqlar – tovar yoki xizmatning bir birligiga, ya'ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda solinadigan soliqlar. Ularga qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar, eksport va import uchun soliqlar va boshqalar kiradi;

ishlab chiqarishga boshqa soliqlar – ishlab chiqariladigan yoki sotiladigan tovarlar va xizmatlarning miqdori va qiymatidan qat'i nazar, korxonalar ishlab chiqarishda ishtirok etish uchun to'laydigan barcha soliqlar;

ishlab chiqarish va importga subsidiyalar bu davlat tomonidan korxonalarga tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, sotish va import qilish yoki ishlab chiqarish omillaridan foydalanganlik uchun ma'lum bir iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish uchun o'tkazib beradigan joriy beg'araz qaytarilmaydigan to'lovlardir;

mahsulotlarga subsidiyalar – bu davlat budjetidan tovarlar yoki xizmatlarning bir birligiga, ya'ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda to'lanadigan mablag'lar (subsidiyalar);

ishlab chiqarishga boshqa subsidiyalar korxonalar ishlab chiqarish omillaridan foydalanganliklari uchun davlat boshqaruvi tomonidan oladigan mablag'lar (subsidiyalar)dan tashkil topadi;

yalpi foyda qo'shilgan qiymatning yollanma ishchilarga haq to'lash bilan bog'liq xarajatlar hamda ishlab chiqarishga va importga sof soliqlarni chegirib tashlangandan so'ng ishlab chiqaruvchilarda qoladigan qismini ifodalaydi.

uy xo'jaliklariga tegishli bo'lgan nokorporativ korxonalar uchun **yalpi aralash daromad** ish uchun to'lanadigan mukofot qismini tashkil etadigan, egasi yoki tadbirkor daromadidan ajratib bo'lmaydigan muvozanatlovchi moddadir.

2-bob. Daromadlarning shakllanishi hisobini tuzish

1-§. Daromadlarning shakllanishi hisobini tuzishning umumiy tamoyillari

2. Daromadlarning shakllanishi hisobi ishlab chiqarish hisobining davomi bo'lib, daromadlarni birlamchi taqsimlanishi hisoblarining birinchi hisobi hisoblanadi. U tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etuvchi institutsional rezident-birliklar tomonidan birlamchi daromadlarning to'lab berilishini aks ettiradi.

3. Daromadlarning shakllanishi hisobi jami iqtisodiyot uchun mazkur Uslubiy nizomning 1-ilovasida keltirilgan sxemaga muvofiq, shuningdek, iqtisodiyotning institutsional sektorlari bo'yicha (2-ilova) va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (3-ilova) tuziladi.

Daromadlarning shakllanishi hisobining resurslar qismida ishlab chiqarish hisobidan ko'chirib o'tkaziladigan yalpi qo'shilgan qiymat miqdori (jami iqtisodiyotda – YAIM) yoziladi.

Daromadlarning shakllanishi hisobining ishlatilish qismida qo'shilgan qiymatdan ishlab chiqaruvchilarning quyidagi xarajatlari ajratib ko'rsatiladi:

ishlab chiqarish jarayonida band bo'lgan ishchilarning mehnatiga haq to'lash;

ishlab chiqarish va importga subsidiyalarni chegirib tashlagan holda, ishlab chiqarish jarayonida undiriladigan ishlab chiqarish va importga soliqlar.

4. Daromadlarning shakllanishi hisobini muvozanatlovchi modda bo'lib, ishlatilish qismida aks ettiriladigan yalpi foyda va yalpi aralash daromadlar hisoblanadi.

Yalpi foyda va yalpi aralash daromad qo'shilgan qiymatning ish haqi va ishlab chiqarishga boshqa soliqlar to'langanidan keyin qoladigan qismi hisoblanadi. Ushbu modda mulk daromadini chegirib tashlashdan oldin ishlab chiqarish faoliyatidan olingan foyda yoki zararni qoplaydi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatidan olingan foyda yoki zarar tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromad

va korxona egasining mehnatiga haq to'lash kabi daromadlarni o'z ichiga oladi. Uy xo'jaliklari uchun ushbu turdagi daromadlarni ajratishning imkoni bo'lmagani sababli, barcha biznes daromadlari MHTda "aralash daromad" deb ataladi.

O'z uyida yashash xizmatlari hajmi ushbu qoidadan mustasno hisoblanadi. O'z uyida yashash xizmatlari hajmini ishlab chiqarish uyning egasini mehnatiga haq to'lash xarajatlarini o'z ichiga olmaydi va uy egasiga hisoblangan daromad uning foydasi hisoblanadi.

Yalpi foyda va yalpi aralash daromadlar quyidagicha aniqlanadi:

a) jami iqtisodiyot uchun:

$$GMI = GDP - C - T + S,$$

bu yerda,

GMI – yalpi foyda va yalpi aralash daromadlar;

GDP – bozor narxlaridagi yalpi ichki mahsulot;

C – yollanma ishchilar mehnatiga haq to'lash;

T – ishlab chiqarish va importga soliqlar;

S – ishlab chiqarish va importga subsidiyalar.

b) iqtisodiy faoliyat turlari va iqtisodiyotning institutsional sektorlari uchun:

$$GMI_i = GVA_i + C_i - T_i + S_i,$$

bu yerda,

GMI_i – i - faoliyat turi bo'yicha yalpi foyda va yalpi aralash daromadlar;

GVA_i – i - faoliyat turi bo'yicha asosiy narxlardagi yalpi qo'shilgan qiymat;

C_i – i - faoliyat turi bo'yicha yollanma ishchilar mehnatiga haq to'lash;

T_i – i - faoliyat turi bo'yicha ishlab chiqarishga boshqa soliqlar;

S_i – i - faoliyat turi bo'yicha ishlab chiqarishga boshqa subsidiyalar.

5. Daromadlarning shakllanishi hisobi iqtisodiyotning quyidagi institutsional sektorlari bo'yicha shakllantiriladi:

nomoliyaviy korporatsiyalar;

moliyaviy korporatsiyalar;

davlat boshqaruvi;

uy xo'jaliklari;

uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar (UXXKNT).

6. Daromadlarning shakllanishi hisobini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tuzish O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – IFUT-2)dan foydalangan holda amalga oshiriladi.

7. Daromadlarning shakllanishi hisobi yillik asosda Statistika dasturida ko'zda tutilgan muddatlarda shakllantiriladi.

2-§. Yollanma ishchilar mehnatiga haq to'lash

8. Yollanma ishchilar mehnatiga haq to'lash ishchilarning rezident yoki norezidentligidan qat'i nazar, rezident-tashkilotlarning barcha ishchilarini

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o'rnatilgan valyuta almashtirish kursi bo'yicha chet el valyutasini O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasiga o'tkazish yo'li orqali hisob-kitoblarga kiritiladi.

9. Ishchilar mehnatiga haq to'lash ikkita asosiy tarkibiy qismlardan tashkil topadi:

ish haqi;

ish beruvchilarning davlat ijtimoiy sug'urtasiga ajratmalari.

Jami iqtisodiyot uchun yollanma ishchilar mehnatiga haq to'lash hisob-kitobi chizmasi mazkur Uslubiy nizomning 4- ilovasida keltirilgan.

10. Ish haqi daromadlarning shakllanishi hisobida ishchilarning davlat ijtimoiy sug'urta badallari, daromad solig'i va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ishchilar tomonidan to'lanadigan boshqa ushlanmalarni chegirib tashlanmagan holda aks ettiriladi.

11. Jami iqtisodiyot va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi fondi mehnat statistikasi ma'lumotlari orqali aniqlanadi. Ish haqi fondiga ish beruvchining ishchilarga sarflaydigan, ish haqi fondiga kiritilmagan, lekin MHTda ish haqi deb hisoblanadigan (moddiy manfaat ko'rinishidagi to'lovlar, korxonalar tomonidan ishchilarning hayoti va sog'lig'ini ixtiyoriy sug'urta qildirish kabi) ba'zi xarajatlari qo'shiladi.

12. Moddiy manfaat ko'rinishidagi to'lovlar o'z ichiga yuridik shaxsning jismoniy shaxs manfaatlaridan kelib chiqib, tovarlar (ishlar, xizmatlar), mulk huquqi uchun to'lovlarini oladi, quyidagilar shular jumlasidandir:

jismoniy shaxslar farzandlarining maktabgacha ta'lim muassasalari qaramog'ida bo'lishi, ta'lim olishi uchun haq to'lash;

ishchilarga taqdim etilgan uy-joyning kommunal xizmatlari, ekspluatatsion xarajatlar, yotoqxonadagi joy yoki uning o'rnini qoplash xarajatlarini to'lab berish;

sanatoriya va kurortlarda dam olish yo'llanmalari, dam olish, statsionar va ambulator davolanish yoki ularning o'rnini qoplash xarajatlarini to'lab berish;

yuridik shaxsning O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq jismoniy shaxsning daromadi bo'lib hisoblanuvchi boshqa xarajatlari.

13. Ishchilarga sarflanadigan, ish haqi fondiga kiritilmaydigan, lekin MHTda ish haqi, deb hisoblanadigan (moddiy manfaat ko'rinishidagi daromadlar, korxonalar tomonidan ishchilarning hayoti va sog'lig'ini ixtiyoriy sug'urta qildirish kabi) xarajatlar 1 korxona shakli (yillik) "Tashkilot xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida hisobot", 1 KB shakli (yillik) "Mikrofirmalar va kichik korxonalarning hisoboti", 1 NNT shakli (yillik) "Nodavlat notijorat tashkilotlarning faoliyati to'g'risida hisobot", 1 notijorat shakli (yillik) "Notijorat tashkilotlarning faoliyati to'g'risida hisobot" statistik hisobotlari ma'lumotlari asosida aniqlanadi (mazkur statistika hisobotlari va kuzatuvlarining abbreviaturasi yoki nomi o'zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi).

Jami iqtisodiyot bo'yicha ish haqini hisoblash chizmasi 5-ilovada keltirilgan.

14. Ish beruvchilarning ijtimoiy sug'urtaga ajratmalari haqiqatda amalga oshirilgan va shartli hisoblangan badallardan iborat.

15. Ijtimoiy sug'urtaga haqiqatda ajratmalar ish beruvchilar tomonidan davlat budjetidan tashqari pensiya jamg'armasiga to'lanadi va aholiga pensiyalar, nafaqalar va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan holatlarda davlat budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan to'lanadigan boshqa to'lovlarni to'lash uchun asosiy moliyalashtirish manbai hisoblanadi.

16. Ijtimoiy sug'urtaga shartli hisoblangan ajratmalar ish beruvchi tomonidan o'z ishchisiga bevosita to'lab beriladi. Ularga quyidagilar kiritiladi:

tashkilot mablag'lari hisobiga to'lab beriladigan pensiyalarga va nafaqalarga qo'shimcha to'lovlar, stipendiyalar;

ishdan bo'shaganda to'lanadigan nafaqa va ishchi bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda mehnat qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladigan boshqa to'lovlar;

oliy o'quv yurtlari bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha talabalarni to'lov-shartnoma asosida ta'lim olishlari uchun o'tkazib beriladigan mablag'lar;

ma'lum bir vaziyatlarning yuzaga kelishi munosabati bilan ishchi yoki uning oila a'zolariga ko'rsatiladigan moddiy yordam.

17. Davlat ijtimoiy sug'urtasiga haqiqatda amalga oshirilgan va shartli hisoblangan badallarni aniqlash uchun ma'lumotlar manbai bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasining ma'lumotlari, shuningdek, 1 korxona shakli (yillik) "Tashkilot xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida hisobot", 1 KB shakli (yillik) "Mikrofirmalar va kichik korxonalarning hisoboti", 1 NNT shakli (yillik) "Nodavlat notijorat tashkilotlarning faoliyati to'g'risida hisobot", 1 notijorat shakli (yillik) "Notijorat tashkilotlarning faoliyati to'g'risida hisobot" statistik hisobotlari hisoblanadi (mazkur statistika hisobotlari va kuzatuvlarining abbreviaturasi yoki nomi o'zgargan taqdirda, ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi).

18. Yollanma ishchilar mehnatiga haq to'lashni har bir faoliyat turining institutsional sohalari bo'yicha taqsimlash quyidagicha amalga oshiriladi:

davlat boshqaruvi sohasining mehnatga haq to'lashi O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi hisoboti ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi;

moliyaviy korporatsiyalar sohasi "Moliyaviy va sug'urta faoliyati" tarmog'iga tegishli korxona va tashkilotlarning mehnatga haq to'lashini o'z ichiga oladi;

nomoliyaviy korporatsiyalar sohasining faoliyat turlari bo'yicha mehnatga haq to'lashi yirik tijorat korxonalari hamda kichik tijorat korxonalari va mikrofirmalar statistik hisobotlarining ma'lumotlari orqali aniqlanadi;

uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sohasining mehnatga haq to'lashi notijorat tashkilotlar uchun statistik hisobotlar shakllari ma'lumotlari asosida aniqlanadi.

3-§. Ishlab chiqarish va importga soliqlar hamda subsidiyalar

19. Ishlab chiqarish va importga soliqlar mahsulotlarga soliqlar va ishlab chiqarishga boshqa soliqlardan iborat. Subsidiyalar ham mahsulotlar uchun subsidiyalar va ishlab chiqarish uchun boshqa subsidiyalardan iborat. Jami iqtisodiyot darajasida ham ishlab chiqarish hisobidan ko'chirib o'tkaziladigan mahsulotlarga soliqlar va subsidiyalar, ham ishlab chiqarishga boshqa soliqlar va subsidiyalar aks ettiriladi. Iqtisodiy faoliyat turlari va iqtisodiyotning institutsional sohalar bo'yicha faqat ishlab chiqarishga boshqa soliqlar va subsidiyalar aks ettiriladi.

20. Ishlab chiqarish va importga soliqlar va subsidiyalar bo'yicha asosiy ma'lumot manbai bo'lib, Iqtisodiyot va moliya vazirligining O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi hisoboti hisoblanadi.

21. Jami iqtisodiyot hamda institutsional sohalar uchun hisoblarda soliqlarni muvofiqlashtirilgan holda aks ettirish maqsadida, ishlab chiqarishga boshqa soliqlarni faoliyat turlari va ushbu soliqlarni to'lovchi sohalar bo'yicha taqsimlanadi.

Qishloq xo'jaligiga oid yerlar uchun yuridik shaxslardan olinadigan, yuridik shaxs maqomi bilan tuzilgan dehqon xo'jaliklaridan olinadigan yer solig'i; qishloq xo'jaligiga oid yerlar uchun fermer xo'jaliklari va yuridik shaxslardan (fermer xo'jaliklaridan tashqari) olinadigan yagona yer solig'i qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi nomoliyaviy korporatsiyalari sohasida hisobga olinadi.

Yuridik shaxs maqomisiz tuzilgan dehqon xo'jaliklaridan tushadigan yer solig'i qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha uy xo'jaliklari sohasida hisobga olinadi.

Qishloq xo'jaligiga oid bo'lmagan yerlar uchun yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i barcha iqtisodiy faoliyat turlarining nomoliyaviy korporatsiyalar sohasida hisobga olinadi va ularning ishlab chiqarishi tuzilishi bo'yicha taqsimlanadi.

Elektrostansiyalar va kommunal xizmat ko'rsatish korxonalaridan olinadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq "Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash" va "Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish" iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha nomoliyaviy korporatsiyalar sohasida hisobga olinadi.

Qishloq xo'jaligi korxonalari, shu jumladan, yuridik shaxs maqomi bilan tuzilgan dehqon xo'jaliklaridan olinadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining nomoliyaviy korporatsiyalar sohasida hisobga olinadi.

Yuridik shaxs maqomisiz tuzilgan dehqon xo'jaliklarining suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining uy xo'jaliklari sohasida hisobga olinadi.

Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari korxonalarining (elektrostansiyalar, kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari, qishloq xo'jaligi korxonalari, dehqon xo'jaliklari va tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslardan tashqari)

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlari nomoliyaviy korporatsiyalar sohasida hisobga olinadi va tegishli iqtisodiy faoliyat turlarining ishlab chiqarishi tuzilishi bo'yicha taqsimlanadi.

Nodavlat notijorat tashkilotlarni ro'yxatdan o'tkazish uchun olingan yig'imlar "Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish" iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha UXXKNT sohasida hisobga olinadi.

Patent to'lovlari va tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslardan olinadigan yig'imlar uy xo'jaliklari sohasida hisobga olinadi va yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatining ishlab chiqarishi tuzilishiga mutanosib tarzda faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanadi.

Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar chakana savdosi bilan shug'ullanish huquqi uchun yig'imlar, alkogolli mahsulotlar chakana savdosi bilan shug'ullanish huquqi uchun yig'imlar, shuningdek, bozorlardan olinadigan daromadlar "Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va motosikllarni ta'mirlash" faoliyat turi bo'yicha nomoliyaviy korporatsiyalar sohasida hisobga olinadi.

Yuqorida sanab o'tilmagan ishlab chiqarishga boshqa soliqlar sohalar (uy xo'jaliklaridan tashqari) va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ularning barcha faoliyat turlari korxonalarining umumiy ishlab chiqarishidagi ulushiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Ishlab chiqarishga boshqa soliqlar ro'yxati 6-ildavda keltirilgan.

3-bob. Yakuniy qoidalar

22. Daromadlarning shakllanishi hisobi ishlab chiqarish hisobi ma'lumotlarini to'ldiradi. Daromadlarning shakllanishi hisobining ma'lumotlari MHTning asosiy ko'rsatkichi – YAIMni daromadlar usulida hisoblash imkonini beradi. Ishlab chiqarish hisobi va daromadlarning shakllanishi hisobi ma'lumotlaridan birgalikda foydalanish ishlab chiqarishni qiymat bo'yicha tuzilishini, ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymatlarining muhim tarkibiy qismlarini o'zaro nisbatini aniqlash imkonini beradi. Ushbu hisob ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil qilish ko'pgina tahliliy masalalarning yechimini topish imkonini beradi, xususan, taqsimlovchi jarayonlardagi asosiy yo'nalishlarni topish, daromadlarning taqsimlanishidagi tuzilish jihatdan sezilarli o'zgarishlarni aniqlash, ishchi kuchidan foydalanish samaradorligidagi davriy o'zgarishlarni o'rganish (YAIM yoki YAQQ va mehnatga haq to'lash o'sish sur'atlarining o'zaro nisbatini tahlil qilish asosida), mehnatga haq to'lash dinamikasini tarmoqlar bo'yicha xususiyatlarini va mehnatga haq to'lash, shuningdek, yalpi foyda va boshqalarning o'sish sur'atlari o'zaro nisbatlarini o'rganish shular jumlasidandir.

23. Daromadlarning shakllanishi hisobini muvozanatlovchi modda – yalpi foyda va yalpi aralash daromadlar – daromadlarning birlamchi taqsimlanishi hisobining resurs qismiga ko'chirib o'tkaziladi.

24. Rasmiy statistika ma'lumotlarini taqdim etish va tarqatishga tayyorlash uchun statistik tahlil usullari va qoidalarini amalda qo'llash

maqsadida GSBPM milliy modelining ma'lumotlarni tahlil qilish bosqichi doirasida dastlabki statistik materiallarni tayyorlash, statistik materiallarga izohlar va tushuntirishlar tayyorlash hamda rasmiy statistika ma'lumotlarini shakllantirishni yakunlash kabi jarayonlardan foydalaniladi.

25. Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni baholash bo'yicha batafsil chora-tadbirlar Statistika agentligining 2024- yil 27- maydagi 114-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha uslubiy nizom"da belgilangan.

Uy xo'jaliklari sektori ko'rsatkichlarini shakllantirish uchun axborot manbai bo'lib, uy xo'jaliklari kuzatuvlari ma'lumotlari, soliq organlarida ro'yxatga olingan yakka tartibdagi tadbirkorlarning soni haqidagi ma'lumotlar, qishloq xo'jaligi, sanoat, qurilish, savdo faoliyati, transport va boshqa turdagi xizmatlarni ko'rsatish bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslarni tanlama kuzatuv ma'lumotlari, shuningdek, kuzatilmaydigan iqtisodiyotni baholash uchun uy xo'jaliklarining xarajatlarini o'rganish maqsadida maxsus tanlanma kuzatuv natijalaridan olingan ma'lumotlar hisoblanadi.

26. Mazkur uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari "Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli" (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma"ga muvofiq amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Система национальных счетов – 2008, Организация Объединенных Наций, Европейская комиссия, Организация экономического сотрудничества и развития, Международный валютный фонд и Всемирный банк, 2009 г.;
2. European system of accounts – 2010, Eurostat, 2013y.;
3. Методы расчета показателей и источники информации для составления счетов СНС для сектора нефинансовых предприятий, Статкомитет СНГ, 2001 г.;
4. Методы расчета показателей и источники информации для составления счетов СНС для сектора финансовых учреждений, Статкомитет СНГ, 2002 г.;
5. Методы расчета показателей и источники информации для составления счетов СНС для сектора государственного управления, Статкомитет СНГ, 2003 г.;
6. Методы расчета показателей и источники информации для составления счетов СНС для сектора домашних хозяйств, Статкомитет СНГ, 2004 г.;
7. Методы расчета показателей и источники информации для составления счетов СНС для сектора некоммерческих организаций, обслуживающих домашние хозяйства, Статкомитет СНГ, 2003 г.;
8. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi;
9. Moliya vazirligining 2010- yil 20- avgustdagi 65- sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi budjet tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma;
10. Энциклопедия статистических терминов, Росстат, 2011.

Daromadlarning shakllanishi hisobini
tuzish bo'yicha Uslubiy nizomga
1-ILOVA

**Jami iqtisodiyot uchun daromadlarning shakllanishi
hisobini tuzish chizmasi**

Ishlatilishi	Resurslar
2. Yollanma ishchilar mehnatiga haq to'lash 3. Ishlab chiqarish va importga soliqlar 3.1. Mahsulotlarga soliqlar 3.2. Ishlab chiqarishga boshqa soliqlar 4. Ishlab chiqarish va importga subsidiyalar (–) 4.1. Mahsulotlarga subsidiyalar 4.2. Ishlab chiqarishga boshqa subsidiyalar 5. Yalpi foyda va yalpi aralash daromadlar (1 – 2 – 3 + 4)	1. Bozor narxlaridagi YAIM
Jami (2 + 3 – 4 + 5)	Jami (1)

Daromadlarning shakllanishi hisobini
tuzish bo'yicha Uslubiy nizamga
2-ILOVA

**Iqtisodiyotning institutsional sohalari bo'yicha daromadlarning
shakllanishi hisobini tuzish chizmasi**

joriy narxlarda, mln so'm

Ishlatilishi						Operatsiyalar va muvozanatlovchi moddalar	Resurslar					
iqtisodiyot sohalari bo'yicha jami	uy xo'jaliklari	UXXKNT	davlat boshqaruvi	moliyaviy korporatsiyalar	nomoliya-viy korporatsiyalar		nomoliya-viy korporatsiyalar	moliyaviy korporatsiyalar	davlat boshqaruvi	UXXKNT	uy xo'jaliklari	iqtisodiyot sohalari bo'yicha jami
						Yalpi qo'shilgan qiymat	*	*	*	*	*	*
*	*	*	*	*	*	Ishchilarning mehnatiga haq to'lash						
*	*	*	*	*	*	Ishlab chiqarish va importga soliqlar						
*						Mahsulotlarga soliqlar						
*	*	*	*	*	*	Ishlab chiqarishga boshqa soliqlar						
*					*	Ishlab chiqarish va importga subsidiyalar (-)						
*						Mahsulotlarga subsidiyalar						
*					*	Ishlab chiqarishga boshqa subsidiyalar						
*	*	*	*	*	*	Yalpi foyda va yalpi aralash daromadlar						

* Ushbu operatsiya uchun yozuv kiritilishi mumkin

Daromadlarning shakllanishi hisobini
tuzish bo'yicha Uslubiy nizomga
3-ILOVA

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha daromadlarning
shakllanishi hisobini tuzish chizmasi**

joriy narxlarda, mln so'm

Iqtisodiy faoliyat turlari	Resurslar	Ishlatilishi			
	yalpi qo'shilgan qiymat	yollanma ishchilar mehnati- ga haq to'lash	ishlab chiqarish- ga boshqa solliqlar	ishlab chiqarishga boshqa subsidiya- lar	yalpi foyda va yalpi aralash daromadlar
A	1	2	3	4	5=(1-2-3+4)
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi					
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash					
Ishlab chiqaradigan sanoat					
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash					
Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish					
Qurilish					
Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va motosikllarni ta'mirlash					
Tashish va saqlash					
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar					
Axborot va aloqa					
Moliyaviy va sug'urta faoliyati					
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar					
Professional, ilmiy va texnik faoliyat					
Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish					
Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot					
Ta'lim					
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish					
San'at, ko'ngil ochish va dam olish					
Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish					
Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami					

Daromadlarning shakllanishi hisobini
tuzish bo'yicha Uslubiy nizomga
4-ILOVA

**Jami iqtisodiyot uchun yollanma ishchilar mehnatiga
haq to'lash hisob-kitobi chizmasi**

joriy narxlarda, mln so'm

Ko'rsatkichlar nomi	Satrlar raqami	Jami
Yollanma ishchilarning ish haqi	01	
Ish beruvchilarning ijtimoiy sug'urtaga haqiqatda amalga oshirgan ajratmalari	02	
Ish beruvchilarning ijtimoiy sug'urtaga shartli hisoblangan ajratmalari	03	
Yollanma ishchilar mehnatiga jami haq to'lash (01 dan 03 gacha satrlar yig'indisi)	04	

Daromadlarning shakllanishi hisobini
tuzish bo'yicha Uslubiy nizomga
5-ILOVA

Jami iqtisodiyot uchun ish haqini hisoblash chizmasi

joriy narxlarda, mln so'm

Ko'rsatkichlar nomi	Satrlar raqami	Jami
Ishchilarga hisoblangan ish haqi fondi	01	
Ishchilarning ish haqi fondiga kiritilmagan, lekin MHTda ish haqiga kiritiladigan to'lovlar (03 dan 04 gacha satrlar yig'indisi)	02	
moddiy manfaat ko'rinishidagi daromadlar	03	
korxonalar tomonidan ishchilarning hayoti va sog'lig'ini ixtiyoriy sug'urta qildirish	04	
Jami ish haqi fondi (01 va 02 satrlar yig'indisi)	05	

Daromadlarning shakllanishi hisobini
tuzish bo'yicha uslubiy nizomga
6-ILOVA

Ishlab chiqarishga boshqa soliqlar ro'yxati

Ishlab chiqarishga boshqa soliqlarning turlari	O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetining ijrosi to'g'risidagi hisobotning daromadlar moddalari kodlari
Qishloq xo'jaligiga oid yerlar (yuridik shaxs maqomi bilan tuzilgan yoki yuridik shaxs maqomisiz tuzilgan dehqon xo'jaliklaridan tushadigan yer solig'idan tashqari) uchun yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i	3 131 201
Yuridik shaxs maqomi bilan tuzilgan dehqon xo'jaliklaridan tushadigan yer solig'i	3 131 202
Qishloq xo'jaligiga oid bo'lmagan yerlar uchun yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i	3 131 203
Yuridik shaxs maqomisiz tuzilgan dehqon xo'jaligidan tushadigan yer solig'i	3 131 205
Qishloq xo'jaligiga oid yerlar uchun yuridik shaxslar (fermer xo'jaliklaridan tashqari) tomonidan to'lanadigan yagona yer solig'i	3 131 207
Fermer xo'jaliklaridan olinadigan yagona yer solig'i	3 131 208
Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i	3 136 100
Elektrostansiyalar suv resurslaridan foydalanganligi uchun soliq	3 145 201
Kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari suv resurslaridan foydalanganligi uchun soliq	3 145 202
Qishloq xo'jaligi korxonalari, jumladan, yuridik shaxs maqomi bilan tuzilgan dehqon xo'jaliklari, suv resurslaridan foydalanganligi uchun soliq	3 145 203
Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari tashkilotlari (elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari, qishloq xo'jaligi korxonalaridan, dehqon xo'jaliklari va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslardan tashqari) suv resurslaridan foydalanganligi uchun soliq	3 145 204
Yuridik shaxs maqomisiz tuzilgan dehqon xo'jaliklari, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning suv resurslaridan foydalanganligi uchun soliq	3 145 205
Bozorlardan tushgan daromadlar	3 413 100
O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan Davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun davlat boji	3 422 102
Patent uchun bojlar	3 422 108
Litsenziya berish uchun yuridik shaxslardan olinadigan davlat bojlari	3 422 109

Ishlab chiqarishga boshqa soliqlarning turlari	O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi hisobotning daromadlar moddalari kodlari
Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun yig'im	3 422 110
Nodavlat notijorat tashkilotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazganlik yig'imi	3 422 112
Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan tayyorlangan buyumlar bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im	3 422 206
Alkogolli mahsulotlar bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im	3 422 217
Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliq	3 112 900

Методические положения по формированию счета образования доходов

